

RAHMATULLA AKAGA

Ezoz topar ezgulik
Urug‘ini ekkanlar.
“Rahmat” aytib el-ulus
“Baraka top” deganlar.

Ustoz umr yo‘lingiz -
Yaxshilikdan iborat.
Ilmu ziyo deb mudom
Chekkansiz ko‘p riyozat.

Bolajonlar olami
Kim aytadi kichikdir.
Feliga mos bu fan ham
O‘ziga xos “injiq”dir.

Sabotu mehr bilan
Ko‘p kitoblar bitdingiz.
Ne ko‘ngillar suv ichgan
Sarchashmadir ilmingiz.

Derlar goho kasb-korning
Nuqsi urar odamga.
Boladay pok, beozor
Felingizga borman-da!

...Ulug‘ yoshda ham bardam,
Yoshlarday chopib yuring.
“Rahmat” eshitib har dam,
“Baraka” topib yuring!

Dilshod RAJAB

RAHMATILLO USTOZGA

Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq!
Abdulla ORIPOV.

Bizni esladilar qancha ulug‘lar,
Muhtaram insonlar, aqli to‘liqlar.
Poylariga sochay ming-ming qulluqlar,
Bizni eslaganga ming bora qulluq!

Miskin jonimizga jonlar esladi,
Misli somon edik, donlar esladi,
Va yo faqir edik, xonlar esladi,
Bizni eslaganga ming bora qulluq!

Bizni dildoshimiz – do‘stlar esladi,
Jonga jondosh shirinso‘zlar esladi.
O‘zimizdek qorako‘zlar esladi,
Bizni eslaganga ming bora qulluq!

Ammoki, sarbozlar eslamadilar,
Muhrdor morbozlar eslamadilar,
Tasqara tannozlar eslamadilar,
Bizni eslaganga ming bora qulluq.

Ayyor o‘yinboshlar esga olmadi.
Makkor bag‘ritoshlar esga olmadi.
Nodon soqqaboshlar esga olmadi,
Bizni eslaganga ming bora qulluq.

Esga olganlarim omon bo‘lsinlar,
Hamisha ezgulik tomon bo‘lsinlar.
Har joyda hazrati inson bo‘lsinlar,
Bizni eslaganga ming bora qulluq!

Eslamaganlar ham omon bo‘lsinlar,
Hammamiz qatori eson yursinlar.
Unutganlaridek unutilsinlar,

Bizni eslaganga ming bora qulluq!

Xudoyberdi KOMILOV

Ustoz Rahmatilla Barakayev yubileyiga bag‘ishlov

QUTLUG‘ MA‘RAKA

Bugun shodlik, cheksiz quvonch, tantana,
Yangrar qo‘shiq, yangrar quvnoq tarona.
Bahosi yo‘q tilla odam mardona.
Katta bayram, yurtda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Bola qalbi bahor kabi navqiron,
Fikrlaydi bola bo‘lib u hamon.
Yozganlarin yig‘sa bo‘lar zo‘r karvon.
Katta bayram, elda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Yirik olim, tadqiqotchi jonkuyar,
Kuyar bo‘lsa, yaxshi asar, deb kuyar.
Bolaparvar, bolalarni xo‘p suyar,
Katta bayram, yurtda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Kamtar inson, Buxoroning farzandi,
Katta ilm yozganlarin har bandi.
Shu Vatanning fidoyisi, dilbandi,
Katta bayram, elda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Bu yubiley adabiyot bayrami,
Rivojida ulkan hissa, yordami.
Mazmunlarga to‘lsin umrin har dami,
Katta bayram, yurtda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Zo‘r yozilgan “Jonajonim she’riyat”,
Tanqiddan ham ko‘zlagani pok niyat.
Shundaylar bor yuksaladi jamiyat,
Katta bayram, elda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Ilmiy ishlar samarasin ko‘ryapmiz,
Ekin-tikin hosilini o‘ryapmiz.
Faxrlanib ko‘kragimiz keryapmiz,
Katta bayram, yurtda qutlug‘ maraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Hazil bitdi Ravshan Isoq chin dildan,
Aybsitmang, qiyiq axtarib qildan.
Ustoz yechmang g‘ayrat kamarin beldan.
Ishingizga tilay rivoj, baraka,
70 yoshda – Rahmatilla Baraka.

Ravshan ISOQ

USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA SHOGIRD TABRIGI

Adabiyot ulkan ummon
Bolajonlar o‘zgacha.
Tahlil qilish oson emas
Har satr, har so‘zgacha.

Buloq kabi qaynab toshar
Daryodayin bilmingiz
Ko‘p Rahmatga munosibdir
Barakali ilmingiz.

Ko‘rsatasiz ijodkorning,
O‘zi bilmas qirrasin.
Asarlarin o‘qib ko‘rib,
Tahlil qilib sarasin.

Ustoz Anvar Obidjonni,

Lol qilgansiz shu zayl.
Bolalar adabiyotin,
Bog‘in etasiz sayr.

Shogirdlar saf tizilishib
Yurmoqda izingizdan.
Saboqlaringizni uqib
Minnatdor o‘zingizdan.

Qutlug‘ bo‘lsin muborak yosh,
Yuzlashingiz yuz bilan.
Nasib qilsin o‘sha kun ham,
Qutlash yorug‘ yuz bilan.

Naima ANVAROVA

EHTIROM VA E‘TIROF

Yaxshi ustoz anqoning
Urug‘iga aylangan.
Poytaxtda zo‘r domulla
Ezgu ishga shaylangan.

Adashboyev ta‘biri
Bilan agar so‘z aytsak:
Zahmatkashda bo‘lmaydi
Tizzasida hech lappak.

Ertayu kech qo‘shadi
Ilm-fanga zo‘r hissa.
Barakayev shu bois
Ustoz bizga alqissa.

Undaydilar yozishga
Shoirlarni zo‘r asar.
Kimdir doston shavqida,
Kimdir to‘qir zo‘r masal.

Ulug‘ karvon sarboni
Boshlagandek Makkaga -
Ergashganmiz pir deya
Rahmatulla akaga.

Ustoz ko‘pni yetkazdi
Pok adabiy manzilga.
Hayotimiz boy bo‘ldi
Ma’noga ham hazilga.

Duogo‘yman, yuz yoshga
Qilsin ustoz harakat.
Erpo‘latga baxt bergan
Inson topsin Baraka.

Hamisha ta’zimdaman, ustoz!

Erpo‘lat BAXT

USTOZ RAHMATILLA BARAKAYEVGA

Sizdagi o‘tkir shuur
Tolening sarxatidan.
Bahramandsiz bir umr
Allohning rahmatidan .

Charchamang aslo, ustoz,
Mayoqsiz yo‘limizda.
Zo‘r qalam-- asil, mumtoz,
Tushmasin qo‘lingizdan.

.
Tilayman ikki olam,
Saodat quyoshini .
Navqironlikka hamdam ,
Shayx Sa’diyning yoshini.

Allohning Rahmatiga,

Yo‘g‘rilgan Barakasiz.
Yuz yoshga kirganda ham
Rahmatilla akasiz!

Yoshlik va navqironlik Sizni hech qachon tark etmasin, ustoz!!!
Alloh uzun va yanada samarali umr ato etsin. O‘zbek ilmiy adabiyotining zarhal
sahifalari sohir nafasingizdan jilo topaversin! Aslo charchamang!

DURPOSHSHO

Ustoz Rahmatulla Barakayevga bag‘ishlayman!

Yo‘l yurdik, yo‘llarda adashdik, ba‘zan,
Ba‘zan bir ko‘ngilga talpindik, yondik.
Eshigini ochmas edi bir odam,
Eshiklar ochildi, tuyg‘uni ko‘rdik.

Ustoz, hech kimsani nari tur demas,
Tufroq bo‘ldik biz ko‘hna Vatanda.
Sizni yaxshilikni avlod unutmas,
She‘r yozib yuribmiz O‘zbekistonda.

Qayg‘u kelsa keldi qo‘sha va qo‘sha,
Mehrning so‘zidir, hamma jahonga.
Rahmatulla og‘am, doim omonsiz,
Qutlug‘ yetmish yoshga to‘lib hayrona.

Boladek sevinib, boladek quvnab,
Boladek yashangiz go‘zal hayotni.
Bizga ilhom talab bering dunyoni,
Bir bor berilgan bu Vatanda yashab...

Xursandbek To‘liboyev,
Toshkent shahri
11.01.2024-y.